



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



“ZAMONAVIY INFORMATIKA: NAZARIYA VA AMALIYOT”

Raxmatullayeva Madina

Olimjonova Umidaxon

Talabalar: Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay Xorijiy tillar fakulteti 25-05 guruh

Ilmiy rahbar: Boboqulov Sherzod

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy media makonida internet va unda axborot almashinuvi jarayonining o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. Internet global axborot maydoni sifatida axborot olish va tarqatish imkoniyatlarini kengaytirib, internet jurnalistikasi va universal jurnalist tushunchalarining shakllanishiga zamin yaratdi. Mening shaxsiy fikrimcha, raqamli texnologiyalar va media konvergentsiyasi sharoitida jurnalistlardan ko‘p qirrali bilim, yuqori mas‘uliyat hamda media va axborot savodxonligi talab etilmoqdadir. Shuningdek, maqolada internet jurnalistikasining jamiyatdagi o‘rni, axborot bozoridagi raqobat, auditoriya ehtiyojlari va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *internet, axborot almashinuvi, zamonaviy media makoni, internet jurnalistikasi, universal jurnalist, raqamli texnologiyalar, media konvergentsiyasi, globallashuv, axborot savodxonligi.*

Kirish:

XXI asr jadal axborot oqimi va raqamli texnologiyalar rivoji bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda jamiyat hayotini axborotsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki axborot inson faoliyatini yo‘naltiruvchi, ijtimoiy jarayonlarni boshqaruvchi va jamoatchilik ongini shakllantiruvchi muhim omilga aylandi. Jahonda sodir bo‘layotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar haqida dastlabki va tezkor ma‘lumotlar aynan ommaviy axborot vositalari, xususan internet orqali keng auditoriyaga yetkazilmoqda.

Hozirgi globallashuv sharoitida internet axborot olish va tarqatishning asosiy maydoniga aylanib, zamonaviy media makonining shakllanishida muhim rol o‘ynamoqda. Global tarmoq axborot almashinuvi tezligini oshirib, uning shakli va mazmunini ham o‘zgartirdi. Natijada internet jurnalistikasi, media konvergentsiyasi va “universal jurnalist” tushunchalari yuzaga keldi. Bugungi kunda jurnalistdan nafaqat matn yozish, balki foto, audio va video materiallar tayyorlash, axborotni tahlil qilish va auditoriya bilan interaktiv muloqot o‘rnatish kabi ko‘p qirrali malakalar talab etilmoqda.

Darhaqiqat, axborot jamiyat rivojining muhim harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, uning sifatli, ishonchli va xolis tarzda tarqatilishi fuqarolik jamiyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Shu bois zamonaviy media makonida internet va axborot almashinuvi jarayonining o‘ziga xos jihatlarni ilmiy tahlil qilish bugungi kunning dolzarb masalalari dan



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



biridir. Axborot orqali inson atrof-muhitda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni anglaydi, ijtimoiy jarayonlarga munosabat bildiradi hamda muayyan qarorlar qabul qiladi.

1- Jadval: Zamonaviy media makonida internet va axborot almashinuvi xususiyatlari

№	Ko‘rsatkichlar	An’anaviy OAV	Internet va zamonaviy media
1	Axborot tarqatish tezligi	Nisbatan sekin	Juda tezkor, real vaqt rejimida
2	Auditoriya qamrovi	Hududiy va cheklangan	Global, chegara bilmaydi
3	Axborot shakli	Asosan matn va ovoz	Matn, audio, video, infografika
4	Auditoriya roli	Passiv iste’molchi	Faol ishtirokchi va tarqatuvchi
5	Jurnalist malakasi	Tor ixtisoslashgan	Universal (matn, foto, video)
6	Axborot almashinuvi	Bir yo‘nalishli	Ikki tomonlama, interaktiv
7	Axborot nazorati	Kuchli tahrir va filtr	Nisbatan erkin, tezkor
8	Media konvergensiya	Deyarli mavjud emas	Yuqori darajada rivojlangan
9	Jamiyatga ta’siri	Sekin va bosqichma-bosqich	Tezkor va keng miqyosli
10	Fuqarolik faolligi	Cheklangan	Yuqori, ochiq munozaralar

Mulohazamdan kelib chiqib aytish mumkinki, globallasuv va raqamli texnologiyalar rivoji internetni zamonaviy media makonining asosiy platformasiga aylantirdi. Internet axborotni tezkor, ochiq va cheklanmagan auditoriyaga yetkazish imkonini berib, ommaviy axborot vositalari faoliyatining shakl va mazmunini tubdan o‘zgartirdi. Natijada auditoriya faqat axborot iste’molchisi emas, balki uning faol tarqatuvchisiga ham aylandi. Bu holat axborot almashinuvi jarayonining interaktivligini oshirib, jurnalistika oldiga yangi talab va vazifalarni qo‘ymoqda. Darhaqiqat, zamonaviy media sharoitida internet jurnalistikasi mustaqil va muhim yo‘nalish sifatida shakllandi. Internet jurnalistikasi tezkorlik, ochiqlik va multimedialik kabi xususiyatlari bilan an’anaviy OAVdan ajralib turadi. Mening fikrimcha, bugungi kunda jurnalistdan nafaqat sifatli matn tayyorlash, balki foto, audio va video materiallar bilan ishlash, axborotni tahlil qilish va baholash kabi ko‘p qirrali malakalar talab etilmoqda. Shu sababli “universal jurnalist” tushunchasi jurnalistika amaliyotida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mulohazamdan kelib chiqib, media konvergensiya jarayoni jurnalist ijodini yangi bosqichga olib chiqayotganini ta’kidlash lozim. Axborotning matn, audio va video shakllarda uyg‘un holda taqdim etilishi auditoriya qiziqishini oshirib, axborotning ta’sirchanligini kuchaytirmoqda. Raqamli texnologiyalar sharoitida media va axborot savodxonligiga ega jurnalistlar jamiyatda dolzarb ijtimoiy muammolarni yoritish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Xulosa tarzida aytganda, axborot bozorida raqobatning kuchayishi jurnalistlardan yuqori kasbiy mahorat, tezkorlik va xolislikni talab etmoqda. Internet aniq va noaniq axborot manbalari jamlangan makon bo'lib, bu jurnalistdan axborotni tanlash va baholashda alohida mas'uliyatni taqozo etadi. Mening shaxsiy fikrimcha, faqat ishonchli, sifatli va tahliliy axborot taqdim etilgan taqdirdagina zamonaviy media makoni jamiyat ehtiyojlariga to'liq javob bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muratova N., Qosimova N., Alimova G., Dadaxonov A., Ilyosxonova A., Xolmatova S., Xakimova N. Onlayn jurnalistika va mediada yangi trendlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 135 b.
2. Nesterenko F.P., Inazarov K.T., Mamatova Y.M. Lug'at-ma'lumotnoma: jurnalistika, reklama, pablik rileyshnz. – Toshkent: Zar qalam, 2003. – 48 b.
3. Prinsipy mejdunarodnoy jurnalistiki i mejdunarodnyy obmen informatsiyey. – Moskva, 1999. – 5-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi // Xalq so'zi gazetasi, 2018 yil 28-iyun.
5. Hakimboyeva Y.A. Zamonaviy media makonida internet va unda axborot almashinuvining o'ziga xosligi // **Scientific Progress**, 2-jild, 6-son. – O'zbekiston, 2021. – 1362–1369-betlar.